

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
BAO'RTAMAXSUSTA'LIMVAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI FAKULTETI

XO'JAQULOV OBBOSBEK ABDIHOFIZOVICH

**“Issiqlik almashinish apparatlarida eksergetik tahlil asosida energiya
tejamkorligini oshirish”**

**5A320303 – “Sovutish, kriogen texnikasi va mo''tadillash tizimlari mashinalari
hamda agregatlari”**

Кафедра: “Sovutish kriogen texnikasi”

**Akademik magistr darajasini olish uchun yozilgan
Dissertatsiya**

Ilmiy rahbar:

prof. Zakirov S.G

Toshkent – 2017 yil.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
BAO'RTAMAXSUSTA'LIMVAZIRLIGI
ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

Fakulteti: MTF

Kafedra: SKT

O'quv yili: 2015-2017

Magistrant: Xo'jaqulov O.A.

Ilmiy rahbar: prof. Zakirov S.G.

Mutaxassislik: 5A320303 "Sovutish va kriogen texnikasi"

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Mavzu : "Issiqlik almashinish apparatlarida eksergetik tahlil asosida energiya tejamkorligini oshirish"

Mavzuning dolzarbliligi: Issiqlik almashinish apparatlarida energiya tejamkorligini oshirish maqsadida kanallarda issiqlik almashinish jarayonini jadallashtirishdan iborat.

Dissertatsiya ishining maqsadi: Mamlakatimizning barcha issiqlik elektr stansiyalarida, issiqlik elektr markazlarida, havoni isitish va shamollatish tizimlarida, kimyo sanoatida, neftni qayta ishlash sanoatida, oziq-ovqat sanoatida, issiq suv ta'minoti va isitish tizimlarida, metallurgiya va kriogen texnikalarda foydalanib kelinayotgan issiqlik almashinish apparatlari uchun energiyadan oqilona foydalanish va unga bo'lgan ehtiyojini optimal variantda kamaytirish.

Tadqiqot obektlari va predmeti: Issiqlik almashinish apparati, issiq suv, sovuq suv, nakatkalangan truba va silliq trubadan iborat.

Tadqiqot usullari: Olib borgan tadqiqotlarimizda modda harakatlanadigan yo'llarning g'adur-budurligini oshirish evaziga issiqlik almashinish jarayonini tezlashtirish va albatta gidravlik qarshiliklarni hisobga olgan holda uning minimal darajada olib borildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Silliq trubalarda oqim harakatining jadallashtirish maqsadida truba devor yaqinida g'adur-budurliklarni oshirish.

Tadqiqotning amaliy natijalari: Silliq va nakatkalangan trubalarni o'zaro farqlarini tahlil qilish shu jumladan, issiq berish koeffitsiyentini, gidravlik qarshilik koeffitsiyentlari jadval va grafik shaklda solishtirib taqqoslandi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya kirish, uchta bob, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, 70 betdan iborat. Shular jumlasida, 20 ta rasm, 19 ta jadval va 9 ta grafikdan tashkil topgan.

Xulosa:

Barcha issiqlik almashinish apparatlaridan foydalaniladigan stansiya va tizimlarda nakatkalangan trubalardan foydalanish. Bu ishdan asosiy maqsad: O'zbekiston sharoitida texnologiyani qo'llash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishdan iborat.

Magistrant:

Xo'jaqulov O.A.

Ilmiy rahbar:

prof. Zakirov S.G.

Kafedra mudiri:

dots. Azizov D.X.

Q – Issiqlik miqdori, [kwt]

t – temperatura, [°C]

Δt_{cp} – o'rtacha arifmetik (logarifmik) temperaturalar farqi, [°C]

ρ – moddaning zichligi, $\left[\frac{kg}{m^3}\right]$

λ – issiqlik o'tkazuvchanlik koefitsienti, $\left[\frac{Vt}{m * K}\right]$

μ – dinamik qovushqoqlik keffitsient, [Pa * c]

ν – kinematik qovushqoqlik koefitsient, $\left[\frac{m^2}{s}\right]$

ω – tezlik, $\left[\frac{m}{s}\right]$

α – Issiqlik berish koefitsienti $\left[\frac{Vt}{m^2 * K}\right]$

K – Issiqlik o'tkazish koefitsienti $\left[\frac{Vt}{m^2 * K}\right]$

F – Issiqlik almashinish yuzasi, [m²]

G – massaviy sarf, $\left[\frac{kg}{s}\right]$

V – Hajmiy sarf, $\left[\frac{m^3}{s}\right]$

N – Quvvat, [Vt]

r – termik qarshilik koefitsienti, $\left[\frac{m^2 * K}{Vt}\right]$

c – issiqlik sig'imi, $\left[\frac{J}{kg * K}\right]$

ζ – Mahalliy gidravlik qarshiliklar koefitsiyenti

ξ – Ishqalanish koefitsienti

λ – Gidravlik qarshilik koefitsienti

ΔP – Bosim, [Pa]

ΔP – Gidravlik qarshilik, [Pa]

δ – Devor qalinligi, [m]

D – Qobiq trubali issiqlik almashinish apparatining diametri, [m]

d_H – Ichki truba tashqi diametri, [m]

d_B – Ichki truba ichki diametri, [m]

n – trubalar soni

L – Issiqlik almashinish trubasining uzunligi, [m]

S_T – Ichki trubalarning kesim yuzasi, [m²]

S_{MT} – Trubalararo yuza, [m²]

z – Issiqlik almashinishdagi yo'llar soni

Asosiy kriteriylar:

$$Re = \frac{\omega * d * \rho}{\mu} - Reynolds soni$$

$$Pr = \frac{c * \mu}{\lambda} - Prandtlya soni$$

$$Nu = \frac{\alpha * d}{\lambda} - Nusselt kriteriysi$$

Indeks

cp – o'rtacha;

oc – o'rtacha atrof muhit (temperaturasi);

BX – kirish;

ВЫХ – chiqish;

t – temperatura;

м – mexanik;

e – ekssergiya;

сТ – devor;

' – kirish;

" – chiqish;

is – issiq suv;

ss-sovuq suv;

B – ichki;

н – tashqi;

эл – elektrik;

эл.м. – elektromexanik;

1- Issiq suv

2- Sovuq suv

Mundarija:

➤ Kirish	3
I-Bob Adabiyotlar tahlili	6
1.1 Issiqlik almashinish jarayonlarini tahlil qilish.....	6
1.2 Issiqlik almashinish jarayonlarini eksergiyaviy tahlili.....	22
1.3 Intensiv issiqlik almashinish kanallari.....	32
II-Bob Issiqlik almashinish jarayonlarini tahlil qilish	37
2.1. Tadqiqot qilinayotgan apparat haqida.....	37
2.2 Intensiv issiqlik almashinish kanallari hisobi.....	40
2.3. Tajriba vaqtida olingan natijalar tahlili.....	43
III-Bob Issiqlik almashinish apparatlarida energiya samaradorligini oshirish borasida olib borilgan ishlar	54
3.1 Issiqlik almashinish apparatlarini issiqlik hisobi.....	54
3.2 Issiqlik almashinish apparatlarini gidravlik hisobi.....	58
3.3 Issiqlik o'tkazish koeffitsiyenti bilan o'rtacha temperaturalar farqi o'rtasidagi uzviy bog'liqligi	60
3.4 Olingan natijalarni tahlili.....	61
3.5 Eksergiyaviy hisoblash usuli.....	63
3.6 Olingan natijalarni tahlili.....	68
➤ Xulosa	73
➤ Adabiyotlar ro'yxati	74
➤ Ilovalar	77

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi. Issiqlik almashinish apparatlari issiqlik elektr stansiyalarida, issiqlik elektr markazlarida, havoni isitish va shamollatish tizimlarida, kimyo sanoatida, neftni qayta ishlash sanoatida, oziq-ovqat sanoatida, issiq suv ta'minoti va isitish tizimlarida, metallurgiya va kriogen texnikalarda keng ko'lamda foydalanilib kelinmoqda.

Sanoat turli sohalarining jadal su'ratlar bilan rivojlanishi issiqlik almashinish apparatlarining keng miqyosda qo'llanilishi va ularga qo'yiladigan talablarni ortishi bilan belgilanadi. Shu bilan birga bu turdagi qurilmalarning tashqi o'lchamlari va massasini kamaytirish, hamda energiya sarfini tejash eng dolzarb muammo bo'lib hisoblanib kelinmoqda. Bundan tashqari, ayrim hollarda temperaturalar farqini va devor temperaturasini pasaytirish lozim bo'ladi.

Eksergetik tahlil termodinamikaning birinchi va ikkinchi qonunlarini birgalikda qo'llovchi sifatiy tahlil bo'lib, texnologik sistemalarda kechadigan xar xil jarayonlarning ham moddiy, ham sifatiy ko'rsatgichlarini ochib beradi. Bu tahlil usulida eksergiyaviy balans tuzilib, u energiyaviy balansdan keskin farq qiladi. Issiqlik almashinish sistemalari tadqiqotida keng qo'llaniladigan energiyaviy balans kechadigan jarayonlarning mukammallik darajasiga to'g'ri baho berishda yetarlicha kamchiliklarga ega.

Termodinamik tahlilning eksergiya usulini sovitish qurilmasining nakatkalangan quvvurli issiqlik almashinish apparatlari uchun qo'llanilishi ushbu ishning muhim jihatlaridan biridir. Chunki bunday apparatlar ustida o'tkazilgan tadqiqotlar asosan ularda kechadigan jarayonlarning silliq quvurdagiga nisbatan jadallashuviga ahamiyat berilgan.

Masalan, Mashinasozlik zavodlarida, issiqlik energiyasidan foydalaniladi, bundagi texnologik jarayonlar: suv vannalri, quritish va isitish tizimlari. Bundan tashqari issiqlik almashgichlar, qozonxonalar va stansiyalar uchun yordamchi compressor xonalarda ham faoydalaniladi. Shular bilan bir qatorda plastik qismlar ishlab chiqaruvchi korxonalarda ham qoliplarni sovutib berishga xizmat qilmoqda.

Undan tashqari, apparat konstruksiyasi va jarayonining tahlili, issiqlik eltgichni uzatish uchun ruxsat etilgan energiya sarfini aniqlash imkonini beradi.

Shuning uchun, apparat orqali issiqlik eltgichni uzatishda bosimlar yo'qotilishining yig'indisi o'zgarmas bo'lganda, uning tashqi o'lchamlarini kamaytirishni ta'minlaydigan intensivlash usullari yaratilishi kerak.

Prezidentimiz I.A. Karimovning "Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir" nomli asarlarida ta'kidlaganidek: "Uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan, mamlakatimizning salohiyati, qudrati va iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan navbatdagi muhim ustuvor yo'nalish – bu asosiy yetakchi sohalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borishdan iborat".

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazani inobatga olgan holda issiqlik almashinish apparatlarida energiya samaradorligini olishga kata ahamiyat qaratilgan

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Bu zavod va fabrikalarda kelib chiqayotgan muaommolarni hal qilish uchun bir qancha ishlar olib borilmoqda, shulardan biri issiqlik almashinish apparatlarida trubalarni trubaizolyator qilish yo'li bilan issiqlik almashinish jarayonini jadallashtirish hisoblanadi.

Issiqlik almashinish apparatlarida issiqlik almashinish jarayonini jadallashtirish maqsadida bir qator ishlar qilindi:

- Issiqlik almashinish apparatining samaradorligini oshirish maqsadidagi berilgan energiya sarflari.
- Issiqlik almashinish apparatining tashqi o'lchamlari va massasini kamaytirish;
- Issiqlik berish jadallashtirish oqimining gidrodinamik tarkibi. Issiqlik oqimi zichligining taqsimlanish yoki issiqlik eltgichda temperaturalar maydoni.
- Issiqlik almashinish apparatining tayyorlash texnologiyasiga moyilligi, hamda eksplutatsiya davrida qulayligi va ishonchliligi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqotda asosiy masala issiqlik almashinish apparatlariga sarf bo'layotgan energiya miqdorini tejagan holda ishlash unumdorligini oshirishdan iborat.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Ushbu sohada bajarilgan ishlar bilan (dissertatsiyalar, adabiyotlar) tanishish borasida quyidagi xulosaga keldim, hozirga qadar kimyo sanoati korxonalarida issiqlik almashinish apparatlarida energiya samaradorligini oshirish borasida bir qancha ishlar olib borilgan va ular hamon davom etmoqda, shulardan biri mening tadqiqot ishim hisoblanadi.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Olib borgan tadqiqotlarimizda modda harakatlanadigan yo'llarning g'adur-budurligini oshirish evaziga issiqlik almashinish jarayonini tezlashtirish va albatta gidravlik qarshiliklarni hisobga olgan holda uning minimal darajada olib borildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari amalda joriy qilinsa, issiqlik almashinish apparatlariga sarflanuvchi energiya miqdorini kamayishiga olib kelinadi.

Ishning ilmiy ahamiyati quyidagilar:

- Issiqlik almashinish apparatlarida solishtirma eksergiya va solishtirma eksergiyaviy yo'qotuvlar ishlab chiqilgan.
- Issiqlik almashinish apparatlarida silliq quvur o'rniga nakatkalangan quvurning qo'llanilishidan issiqlik almashinish apparatlari ishida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan.
- Nakatkalangan quvur silliq quvur o'rniga qo'llanilishidan issiqlik almashinish apparatlarini energiya tejamkorligi masalalari ancha yaxshilanganligi aniqlangan.

Dissertatsiya ishining amaliy ahamiyati sifatida esa quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- Grafik ko'rinishda taklif etilgan eksperimental izlanish natijalari yuqori samarali apparatlarni loyihalash va to'g'ri ekspluatatsiya qilishda ishlatilishi mumkin;
- Issiqlik almashinish apparatining texnik-iqtisodiy tahlilida solishtirma eksergiya yo'qotuvlaridan foydalanib optimal ish rejimini aniqlash amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, 70 betdan iborat. Shular jumlasida, 20 ta rasm, 19 ta jadval va 8 ta grafik 86 ta adabiyotdan tashkil topgan.


I-Bob Adabiyotlar tahlili.

1.1 Issiqlik almashinish jarayonlarini tahlil qilish.

Quvurni nakatkalash yordamida issiqlik almashinuvini jadallashtirish.

Quvurchali issiqlik almashinuvi qurilmalarida quvurni nakatkalash orqali issiqlik almashinuvini jadallashtirish usuli Moskva aviatsiya institut (MAI) da E.K. Kalinin, G.A. Dreyser, E.V. Dubrovskiy, S.A. Yarxo, G.I. Voroninlar tomonidan ishlab chiqilgan. Taklif etilgan usulning mohiyati quyidagicha: nakatkalash yordamida quvurning tashqi yuzasiga davriy joylashgan halqali bo'rtiqlar hosil qilinadi (1.1-rasm).

Bunda quvurning ichki yuzasida ravon shaklli halqali diafragmalar hosil bo'ladi. Halqali diafragmalar va bo'rtmalar devor oldi qatlamidagi oqimni turbulizatsiyalaydi va quvurning ichki va tashqi tomonida issiqlik almashinuvi jadallashishini ta'minlaydi. Shuningdek bunda to'plamning tashqi diametri oshmaydi va issiqlik almashinuvi qurilmalarini yig'ishning oldingi texnologiyasi o'zgarmaydi.



1.1-rasm. Halqali nakatkali quvurning ko'ndalang qirgimi

Quvurlarni nakatkalashning taklif etilgan usulini amalga oshirish qiyin emas. Nakatkani amalga oshirish narxi quvur narxining bir necha foizini tashkil etadi.

Taklif etilgan halqali turbulizatorli quvurlar gaz va suyuqlikda ishlovchi moslamalarda, issiqlik tashuvchilarning qaynashida va kondensatsiyalanishida qo'llaniladi, shuningdek amaliyotda qo'llashda universallikni ta'minlaydi. Shunday qilib, halqali turbulizatorli quvurlar barcha talablarni qoniqtiradi, bu esa ularni amaliyotda keng qo'llash imkonini beradi.


Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu quvurlarda birinchi marotaba ilgari no'malum bo'lgan qonuniyat, ya'ni majburiy konveksiya sharoitida oqimning diskret turbulizatsiyalanishida kanal davrlarida issiqlik berishning o'zgarishi kashf etildi, ya'ni turbulizatorlarning belgilangan ko'lamdagi o'lchamida va joylashuvida issiqlik berishning o'sishi gidravlik qarshilikning o'sishidan katta bo'ladi. $Nu/Nu_c > \xi / \xi_t$ munosabatni amaliyotga joriy etib foydalanish natijasida, issiqlik almashinuvi qurilmasining belgilangan quvvatida va gidravlik qarshiligida nafaqat moslamaning hajmi kamayadi, balki uning ko'ndalang kesimi maydoni qisqaradi.

Halqali turbulizatorli quvurlar uchun Reynolds soniga bog'liq holda issiqlik berish va gidravlik qarshilik koeffitsientlarini aniqlash uchun

turbulizatorlarning joylashish qadami va balandligi d/D uchun umumlashtiruvchi bog'liqliklar olingan [4-5]. Barcha keltirilgan bog'liqliklarda halqali turbulizatorli quvurlarda va quvurlar to'plamida issiqlik berish koeffitsientini aniqlashda issiqlik almashinish yuzasining oshishi hisobga olinmagan, ya'ni issiqlik oqimining zichligi tekis quvurlarning o'tish kesimi bo'yicha aniqlanadi.

Spiral nakatka yordamida issiqlik almashinuvini jadallashtirish.

Ichki spiral nakatka issiqlik almashinuvi qurilmalarida keng qo'llaniladi. Nakatka tokarlik dastgohida amalga oshiriladi. Tabiiyki amaliyotda massaviy ishlab chiqarishda tayyorlash jarayoni modernizatsiyalanishi mumkin va bunday quvurlar rolikli mashinada yoki boshqa usul bilan tayyorlanishi mumkin. Ichki spiral nakatkaning ko'ndalang qirgimi 1.2-rasmda keltirilgan.



1.2-rasm. Vintsimon nakatkali quvurning umumiy ko'rinishi.

Uzluqli bo'rtmalar yordamida issiqlik berishni jadallashtirish turbulizatsiyalash va oqimning devor oldi zonalarini buzish hisobiga amalga oshiriladi. Issiqlik almashinuvini jadallashtiruvini va gidravlik qarshilikni ortishi bo'rtmaning balandligi h_s , bo'rtmalar orasidagi masofa S , bo'rtmalar shakliga va ularning o'zaro joylashuviga bog'liq [6].

Shuni ta'kidash joizki, halqali va vintsimon nakatkali quvurlarda issiqlik almashinuvini jadallashtirish qator afzalliklarga ega [6]:

- 1) quvurning tashqi yuzasida nakatkalash yordamida hosil qilinadigan uymalar issiqlik tashuvchilarning quvurlararo oqimida issiqlik almashinuvini jadallashtiradi;
- 2) nakatkalash texnologiyasi sodda;
- 3) qoplama quvurli issiqlik almashinuvi qurilmasini yig'ishning amaldagi texnologiyasini nakatkalangan quvurlar uchun to'raligicha qo'llash mumkin;
- 4) kam xarajatli (nakatkalash narxi tekis quvur narxining bir necha foizini tashkil etadi [7]);
- 5) qo'shimcha metall sarfi talab etilmaydi.

Re sonining katta qiymatlarida oqimning turbulentli g'alayonlanishi kanalning markaziga to'g'ri keladi va issiqlik berish jarayoniga kam ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek $Re=10 \cdot 4 \div 10 \cdot 5$ uchun bo'rtmaning optimal balandligi $0,02 < h_s/d < 0,1$, optimal qadami esa $10 < S/h_s < 25$ oraliqda bo'ladi [8-9].

Spiral qovurg'ali quvurlarni, vintsimon nakatkali quvurlarni va prujinali spiralsimon o'rnatmali quvurlarni qo'llanilish sohalari deyarli bir xil. Issiqlik almashinuvini jadallashtirishda yuzaga keladigan samaralar ham deyarli bir xil. Lekin [7,10] larda ko'rsatilishicha vintsimon nakatka shaklidagi

jadallashtirgichning shakllari kamayadi va bo'rtma bilan qiziyotgan quvur yuzasi orasidagi kontakti yomonlashishi yuzaga kelmaydi, bu ayniqsa prujinali o'rnatmalardan foydalanishda sodir bo'ladi.

[11] da ushbu jadallashtirish usulining samaradorligi qayd qilingan $Re=6 \cdot 10^3 \div 3 \cdot 10^5$ ko'lamida samara yoki tekis quvur bilan solishtirilganda issiqlik almashinuvining jadallashishini oshiishi 50% ga etadi.

Ishda vintsimon nakatka yordamida qovushqoq nyuton suyuqliklarida issiqlik almashinuvini jadallashtirish bo'yicha tajribalar o'tkazilgan. Tadqiqot jarayonida Reynolds sonining qiymati 30 dan 2000 gacha o'zgaradi, ishchi muhit sifatida transformator moyidan foydalanilgan. Foydalanilgan quvurlarning geometrik o'lchamlari jadval shaklida keltirilgan. Ushbu holda gidravlik qarshilikni ortishi 30-60%. Issiqlik sig'imini ortishi 40-70% ni tashkil ejtadi. Issiqlik almashinuvi va gidravlik qarshilik bo'yicha olingan tajriba natijalari $Nu=f(Re)$ va $x=f(Re)$ grafik shaklida keltirilgan.

Bir xil sharoitda spralsimon bo'rtmali quvurlarda issiqlik almashinuvini solishtirilganda, ya'ni $Re=const$, $Re=6 \cdot 10^3 \dots 7 \cdot 10^4$ bo'lganda ko'p yo'lli bo'rtmalar boshqa girdoblantirgichlarga qaraganda 20...25% ga samaralidir.

Hozirgi vaqtda bo'rtma quvurlar dastasidan tayyorlangan issiqlik almashinuvi qurilmalari keng ishlab chiqarilmoqda. Bunday moslamalarni tarmoq suv qizdirgichlarida qo'llanilganida jadallashtirish samaradorligi 5-70% ga etadi: bunda issiqlik almashinuvi qurilmasining massasi 50% ga kamayadi [12,13]. [14] ishda ta'kidlanganidek, bo'rtmali quvurlar mustahkamligi bo'yicha tekis quvurlardan qolishmaydi.

Spiralsimon uymali quvurlarda issiqlik almashinuvini tajribaviy tadqiqot qilish havo va suv uchun qator ishlarda [15-16] bajarilgan, bunda Reynolds sonining ko'lam $Re=2 \cdot 10^3 \div 10^5$.


Spiralsimon bo'rtmali quvurlarda oqim vaqtida jadallashtirish samarasi o'tish va turbulent rejimlar sohasida gidravlik qarshiliklar bir xil bo'lganda tekis quvur bilan solishtirilganda 50% ga ortadi.

Spiralsimon prujina yordamida issiqlik almashinuvini jadallashtirish.

Spiralsimon simli prujinkalar issiqlik almashinuv moslamalarida keng qo'llaniladi. Spiralsimon simli turbulizatorlar oqimning devor oldi qismini turbulizatsiyalab qolmasdan, balki o'qi atrofida butun oqimni aylanma harakatga keltiradi. Bu kabi issiqlik almashinuvini jadallashtirgichlar quyidagi asosiy afzallaiklari bilan tavsiflanadi:

- issiqlik almashinuvi maydoni oshadi;
- quvur yuzasi yaqinidagi oqim harakatlanadi, natijada tezlik va haroratni maksimal gradienti kuzatiladi;
- qovushqoq ost qatlam buziladi;
- buralish va oqim buzilishining birgalikdagi samaradorligi issiqlik almashinuvi gidravlik qarshilik orasidagi munosabatni yaxshilaydi;
- tayyorlashda texnologik tomonlama soddalik.

Spiralsimon simli prujinkalar N.V. Zozulya va I.N. Shkuratov , Z. Nagaokiy , V.M. Azarskov , A Klachak va boshqalar tomonidan tajribaviy tadqiqotlar qilingan.



1.3-rasm. Quvur ichidagi spiralsimon prujinka.

Simli oʻrnatmali quvurning asosiy parametrlari quyidagilar hisoblanadi: quvur diametri D , sim diametri d , simli oʻrnatmaning qadami s , spiralning buralish burchagi α . [17] ishda diametri 25,2 mm va uzunligi 1500 mm ($l/d=59,5$) boʻlgan quvurda issiqlik almashinuvi va bosim yoʻqotilishi oʻrganilgan. Simning 26 diametri 2,0 dan 3,4 mm ($d/D=0,079\dots 0,135$) gacha, spiralning qadami 10 dan 66 mm gacha oʻzgaradi. Spiralning buralish burchagi 320 dan 760 gacha tashkil etadi. Ishchi suyuqlik sifatida Hindustan Petroleum Corp (Hindiston) moyidan foydalanilgan. Tajribalar $Re=30\dots 700$ sohada olib borilgan.



Issiqlik berish jadalligining eng yaxshi darajasi Reynolds soni 1200 dan kam boʻlganda amalga oshadi (tekis quvur bilan solishtirilganda 2...3 marta yuqori). Reynolds sonini ortib borishi bilan issiqlik almashinuvini jadallashtirish darajasi kamayadi va $Re>6000$ boʻlganda 27 taxminan 1,5 ga teng boʻlgan qiymatga ega boʻladi. Demak, prujinali oʻrnatmalar Reynolds sonining kichik qiymatlarida eng yaxshi samara beradi.

Olingan natijalarning tahlili shuni koʻrsatadiki, turbulent oqimda issiqlik berish koeffitsientini ortishi tekis quvur bilan solishtirilganda 1,3-1,5 ni tashkil etadi, bu laminar oqim rejimiga qaraganda kam.


Truba devorlarining ichki qismiga trubaizolyatsiya qilish yaʼni spiralsimon, diafragma, disklar va nasadkalar koʻrinishidagi trubaizolyatorlar orqali issiqlik almashinish jarayonini jadallashtiriladi. Reynolds soni turbulent va oʻtish rejimida issiqlik almashinishni jadallashtirish bir necha baravarga farq qiladi.

Issiqlik almashinish jadallashtirish maqsadida issiqlik almashinish yuzalarini gʻadur-budurligini oshirish eʼvaziga amalga oshiriladi. Laminar rejimda, issiqlik almashinish silliq trubalarga qaraganda issiqlik almashinish yuzalariga ishlov berilgan trubalarda 20-100% yuqori boʻladi.

Issiqlik almashinishni jadallashtirish maqsadida issiqlik almashinish yuzalariga ishlov berilgan trubalar sxemasi:




a) Burama lentali




v) Burama truba


b) Teshik shaklli truba




g) Tashqi tomondan ko'ndalang botiq ariqcha va ichki tomoni silliq bo'rtiq to'siqli samarador issiqlik almashinish yuzasi




d) Uzluksizshneklilenta




e) Spiral truba



ж) To'g'ri to'rtburchak shaklli




3) To'lqin o'qli truba




i)


Tashqitomonidavintsimonko'ndalangbotiqariqchavai chkitomonidasilliqbo'rtiqto'siqlitruba



k) Konfuzor-diffuzor turidagi truba



l) Spiral vintli truba




m) Ichki qismi vint

1.4-rasm. Trubaizolyator qilingan truba shakllarining sxemasi.

V.A. Kirpikovimsilliqlik konfuzor-diffuzor turidagi, to'liqlik qovurg'ashaklli, yarimoyshaklli, teshik–teshikshaklli trubalarda izlanishlar olib borgan, Ubu trubalarda issiqlik almashinishi silliq trubalar bilan solishtirib yuqori issiqlik almashinish samaradorligini ko'rsatib bergan. Bundan tashqari gidravlik qarshilikni ham silliq trubalarda va trubailoziyator qilingan trubalarga solishtirib ko'rsatgan. [18]

V. K. Migay kesik konus shaklli konfuzor – diffuzor turidagi trubalarda izlanishlar olib borgan (1.5-rasm).




1.5-rasm

Uning izlanish natijalarini shuni ko'rsatadiki, issiqlik almashinish yuzasi silliq trubalar yuzalariga qaraganda 34-38% ga kamaygan.[19]


Asosiy tajriba natijalari [19,20] konfuzor-diffuzor turidagi trubalarda konfuzorni uzunligi diffuzor uzunligiga qaraganda ikki marta kichik bo'lishi kerak, diffuzorning kengayish burchagi ($\alpha_0 \leq 9^\circ$) oshmasligi kerak shunda eng yaxshi issiqlik almashinish va gidravlik qarshilik kam natijalarga ega bo'lish mumkinligini ko'rsatib o'tgan [21].

Taxavutdinov R. G. kichik o'lchamli aralashmalar uchun trubaizolyator qilinga ya'ni konfuzor – diffuzor shaklidagi trubalarda izlanishlarini olib borgan. Suyuqlikni yaxshi aralashishini apparatni silindrik konstruksiya qilib taqqoslagan (1.6-rasm).[22]




1.6-rasm

Kichik o'lchamli konfuzor –diffuzor turidagi apparatida izlanishlar olib borgan (1.7-rasm). Unda apparatning samaradorligi 10-25% ga oshishiga erishgan.[23]



1.7-rasm

Sinusoidal to'liqlik trubalarda suyuqlik oqimini laminar rejimda issiqlik almashinishini va gidrodinamik jarayonlarini tahlil qilgan. (1.8-rasm) kirish trubalarida Reynolds soni $Re=800$ bo'lganda Nusselt sonini trubalarning chiqish joylarida maksimal yaqinlashishini tekshirilgan.[24]



1.8-rasm

Konfuzor-diffuzor turidagi trubalarni tayyorlash tokorlik stanoklarida proklatkalash yo'li bilan amalga oshiriladi [21], ularni gazli payvandlash yo'li bilan amalga oshiriladi, payvandlangan issiqlik almashinish yuzasi qayta ishalsh natijasida tozalanadi. [25]

Vintli nakatkalangan kanallar

Intensivlash qo'llashning muhim omiliular konstruksiyalarining samaradorligini baholash sanaladi. Yuqorida qayd qilinganidek, baholashning usullaridan biri – bu

$$(Nu / Nu_0) / (\xi / \xi_0) = f(Re), \quad [1.1]$$

formula yordamida issiqlik gidrodinamikasi samaradorligini belgilashdir. U, o'z navbatida, E.K. Kalinin va G.A. Dreyser [116] tomonidan ishlab chiqilgan hamda ular tomonidan g'adir-budur kanallar samaradorligini baholash uchun qo'llanilgan bir xil belgilovchi o'lchamlar bilan mashhur qiyoslash usulini rivojlantirish hisoblanadi.

$$(Nu / Nu_0) / (\xi / \xi_0) = f(Re),$$

bog'liqligi Reynolds miqdori bo'yicha intensivlatorni qo'llashning tobora ma'qul sohasini aniqlash va ish muhitining turli o'rta temperaturalardagi samaradorligini baholash imkonini beradi.

Ishchi muhitini yaratish uchun zarur bo'lgan energiya sarfiga ta'sir qiluvchi asosiy o'lchalardan biri hisoblanuvchi gidrodinamik qarshilikning ortishi baholash va energetik samaradorlikni yo'lga qo'yishni talab qiladi.

Konvektiv sirtning energetik samaradorligi ishchi muhit oqimining bir xil o'rta temperaturalaridagi har bir shakl uchun belgilanishi zarur [26], bu esa uni bir tadqiqot doirasida qo'llash imkonini beradi. Tadqiqotlarda faqat issiqlik samaradorligini baholash uchun o'zaro nisbat qo'llaniladi.

Quyida vintli nakatka yordamida egiluvchan nyuton suyuqliklarida issiqlik almashinuvini kuchaytirish bo'yicha tajriba natijalari ko'rib chiqilgan [27]. Tadqiqot jarayonida Reynolds miqdori mohiyati 30 dan to 2000 gacha doirada o'zgargan. Ishchi muhit orqali transformator yog' sanalgan.

Trubalarning foydalanilgan o'ziga xos geometrik o'lchamlari 1.1. jadvalda berilgan.


1.1. jadval

Truba nomeri	Trubaning ichki diametri D, m	Trubaning ichki diametri D ₁ , m	Vintli nakatkalangan trubaning nisbiy qadami S/D	Nisbiy balandligi d/D	Ekvivalent diametr D _e , mm
0			-	1,0	1,4
1			0,72	0,72	6,95
2			1,79	0,72	9,96
3			2,86	0,72	10,85
4	0,014	0,016	4,29	0,72	11,29
5			1,79	0,79	10,97
6			1,79	0,82	11,58
7			1,79	0,86	11,98

Gidravlik qarshilik. Re miqdori mohiyatining tadqiq qilinayotgan sohadagi gidravlik qarshilik silliq trubadagi transformator yog'ining laminar o'tishida mashhur $\xi = 64/Re$ nisbat bilan beriladi; kamchilik 5-8% ni tashkil qiladi. oqimning izometrik tartibida vintli nakatka orqali tadqiq qilinayotgan trubalar uchun olingan tajriba ma'lumotlari gidravlik qarshilikning sezilarli darajada ortganini ko'rsatgan.

1.9 – rasmda barcha tadqiq qilinayotgan vintli nakatkali truba va silliq trubalar uchun $\xi = f(Re)$ bog'liqligi taqdim qilingan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, gidravlik qarshilikning ortishi kanalning geometrik xarakteristikasi bilan bevosita bog'liq. Gidravlik qarshilikning maksimal ortishi vintli nakatka $S/D = 0,72$ va bo'rtiqning maksimal yuqoriligiga $d/D = 0,72$ minimal masofasiga ega trubalarni o'rnatishda erishiladi. 1.9- rasmdan kelib chiqib aytish mumkinki, vintli nakatkaga ega barcha tadqiq qilinayotgan trubalar uchun


bogʻliqlik xarakteri bilan farq qiluvchi oqimning ikki tartibini koʻrsatish mumkin $\xi = f(Re)$.



1.9. – rasmda vintli nakatkali trubalarda transformator yogʻlar uchun eksperimental bogʻliqlik $\xi = f(Re)$: 1.9. jadvalga muvofiq 0-7 – trubalar soni.

Birinchi tartibda Reynolds Re^* miqdorining ayrim mohiyatiga qadar $\xi = f(Re)$ chizigʻi $\xi = 64/Re$ chizigʻiga parallel, bu esa quyidagi xulosani keltirib chiqaradi: ushbu sohada gidravlik qarshilikning ortishi vintli nakatkaning bevosita boʻrtigʻi natijasida katta boʻlmagan uyurma hosil boʻlishi mavjudligidan kelib chiqqan; Reynolds Re^* soni keskin mohiyati bevosita vintli nakatkaning geometrik xarakteristikasi bilan bogʻliq. Re^* mohiyatiga erishish boʻyicha gidravlik qarshilik koeffitsientining sezilarli ortishi bilan tavsiflanadigan ikkinchi sohaga oʻtish amalga oshiriladi. Xuddi shunday samaralar simli spiral qoʻshimchalar [28] yordamida, shuningdek buralgan spiral lentalar [29] orqali issiqlik almashinuvi jadallashuvi tadqiqotida kuzatilgan. Ushbu tartibda girdobli toyilish zonasining kengayishi [28] qayd qilingan, yaʼni gidravlik qarshilikning keskin ortishi bilan kuzatiluvchi oqimning bir muncha turbulentlashganligi. Birinchi tartib uchun silliq trubaning qarshiligiga nisbatan gidravlik qarshilikning 30-200% ga ortishi xosdir. Ikkinchi tartibga xos soha uchun ushbu koʻrsatkich 350-600% gachani tashkil qilgan. [28] ga oʻxshashlik

bo'yicha gidravlik qarshilikning Re mohiyati bo'yicha korrelyasiya o'tkazilgan (1.10.-rasm). Re miqdori oqim erkin maydonining to'rt hissa ko'paytirilgan hajmi munosabati sifatida namlangan sirtning to'liq maydoniga nisbatan belgilanuvchi ekvivalentli diametr bo'yicha hisoblangan. Bunda gidravlik qarshilikning $\xi = 64/Re$ chiziqqa nisbatan mohiyati yaqinlashganligi qayd qilinadi. Re^* ning vintli nakatkali trubalar uchun keskin mohiyatining ushbu chiziq bo'ylab nakatka balandligining qisqarishi va uning Reynolds miqdorining yirik mohiyati tomoniga harakatning ortishi bilan aralashadi. Shunday qilib, nakatkaning kichik harakati uchun $S/D = 0,72$ va yuqori balandligi uchun $d/D = 0,72$ $Re^* = 148,9$, nakatkaning yuqori harakatli trubalari uchun esa $S/D = 4,29$ va kichik balandlik uchun $d/D = 0,86$ $Re^* = 564,8$ [30].




1.10.-rasm. Vintli nakatkali trubalarda transformator yog'lar uchun eksperimental bog'liqlik $\xi = f(Re)$; 1.9.-rasmdagi kabi belgilash qoladi.

Issiqlik almashinuv. 1.11 va 1.12 –rasmlarda vintli nakatkali turli geometrik xarakteristikaga ega trubalar uchun $Nu = f(Re)$ ning eksperimental bog'liqligi ko'rsatilgan [30]. 1.12 –rasmda o'zgartirilgan harakatli $S/D = 0,72$; 1,79; 2,86 va 4,29 nakatkali trubalar uchun $Nu = f(Re)$ miqdorining eksperimental maydoni bo'yicha o'rtacha bog'liqligi taqdim qilingan;


Barcha trubalar uchun $d/D = 0,72$. 1.13.-rasmda esa vintli nakatkali harakatning qayd qilingan mohiyati bilan $S/D = 1,79$ va o'zgartirilgan

balandliklarga ega $d/D = 0,72; 0,79; 0,82$ va $0,86$ trubalar uchun $Nu = f(Re)$ bogʻliqligi taqdim qilingan.




1.11.-rasm. Transformator yogʻ uchun $S/D = 0,72; 1,79; 2,86$ va $4,29$ ($d/D = 0,72$) uchun $Nu = f(Re)$ ning eksperimental bogʻliqligi; 1.9.-rasmda ham oʻsha belgilashlar.

Bu erda xuddi $\xi = f(Re)$ bogʻliqligi xarakterini koʻrib chiqishda issiqlik almashinuvi jarayonlarining xarakter va jadallashuvi bilan farq qiluvchi ikki tartibni qayd qilish mumkin. 1.9. – 1.12.-rasmlardan Re^* keskin mohiyatining bir tartibdan ikkinchi tartibga oʻtishi ushbu chiziqlarda deyarli mos kelganligi koʻrinib turibdiki. 1.11. va 1.12.-rasmlarda intensivlashning vintli nakatka shaklda qoʻllanilishi koʻrsatilgan, bu esa silliq trubaga nisbatan issiqlik almashinuvi jadallashuvi ortganining sezilarli samarasini beradi. Vintli nakatkaning minimal harakatiga ega trubalar uchun $S/D = 0,72$ maksimal samaraga erishiladi (1.12.-rasm). Vintli nakatka harakatining ortishi bilan silliq trubalar uchun $Nu = f(Re)$ va $Nu_0 = f(Re)$ chiziqlarining yaqinlashuvi, shuningdek, Re^* keskin mohiyat nuqtasining Re yirik miqdori tomonga siljishi qayd qilinadi. Bu vintli nakatka harakatining issiqlik almashinuvi jarayoni jadallashuviga nisbatan sezilarli taʼsiridan dalolat beradi. Vintli nakatka balandligi ortishi bilan issiqlik almashinuvi jadallashuvining oʻsishiga intilish ham namoyon boʻladi (1.12.-rasm).



1.12.-rasm. Transformator yog‘ uchun $S/D = 0,72; 1,79; 2,86$ va $4,29$ ($d/D = 1,79$) uchun $Nu = f(Re)$ eksperimental bog‘liqlik; 1.9.-rasmdagi o‘sha belgilar.



1.13.-rasm. Vintli naklatkali trubalarning issiqlikgidravlik samaradorligi; 1.9.-rasmdagi o‘sha belgilar.

$Re < Re^*$ da oqim tartibi uchun silliq trubalarda $Nu = f(Re)$ bog‘liqlik chizig‘i $Nu_0 = f(Re)$ bog‘liqlik chizig‘iga parallel, bu esa quyidagi xulosaga olib keladi: ushbu sohada issiqlik almashinuvi xarakteri laminardir va $Nu = f(Re, R_r)$ farqli o‘laroq silliq trubalar uchun olingan mashhur tajribaga asoslangan o‘zaro nisbatlarga proporsionaldir. Bunda vintli nakatkaning geometrik o‘lchamlaridan kelib chiqib 40-250% tashkil qiluvchi jadallashuv samarasi qayd qilinadi. Re^* miqdorining keskin mohiyatiga erishish bo‘yicha

issiqlik almashinuvining jiddiy ortishi ro'y beradi, shu bilan birga jadallashuv samarasi 150-700% ga etadi. Bu esa yuqori uyurmali laminar tartibga o'tishni anglatadi [31].

Re^* keskin miqdorini belgilash uchun issiqlik elementlarining konstruktiv xarakteristikasidan farqli o'laroq birinchi tartibdan ikkinchi tartibga o'tishida o'zaro nisbat olindi

$$Re^* = f(S/D, d/D). \quad [1.2]$$

Ma'lum bo'lishicha, barcha tadqiq qilinayotgan trubalar uchun o'zaro nisbat quyidagi ko'rinishga ega [30]:

$$Re^* = 1070 (S/D)^{0,157} (d/D)^{3,6} \quad [1.3]$$

Jadallashuvning ushbu usulining issiqlikgidravlik samaradorligini aniqlash uchun eksperimental bog'liqliklar olingan. 1.13.-rasmdan ko'rinib turibdiki, issiqlik gidravlik samaradorligi bevosita tadqiq qilinadigan kanalning S/D va d/D geometrik xarakteristikasi bilan bog'liq. Ma'lum bo'lishicha, nisbiy harakatlarga ega $S/D = 1,79$ va $0,72$ va o'zar nisbiy balandlikdagi $d/D = 0,72$ trubalardan foydalanish o'ta ma'quldir. Bunda issiqlik uzatish samaradorligining o'sish sur'ati gidravlik qarshilikning o'sishidan birinchi tartib ($Re < Re^*$) uchun 10-15%ga, ikkinchisi uchun - 25%ga ortadi.

1.2. Eksergetiktahlil usuli

Termodinamik tizimlarni tahlil qilishda, birinchisi bilan bir qatorda, termodinamikaning ikkinchi qonunini ham e'tiborga olish zarur. Termodinamikaning ham birinchi, ham ikkinchi qonuni sifatidagi texnologik tizim tahlilini e'tiborga oluvchi termodinamik tahlil usuli eksergetik deb nomlanadi. Termodinamikaning ushbu usuli termodinamik imkoniyatlar tushunchasini kiritishga asoslangan. Asoslab tanlangan termodinamik imkoniyatlar moddalar oqimi va ko'rib chiqilayotgan tizimning har qanday nuqtadagi energiyasining ishlash qobiliyatini belgilash imkoniyatini beradi.

Tahlilning ushbu usulida muhitni o'rab turgan texnik tizimlar katta ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash joizki, barcha aniq texnik jarayonlar atrofimizni o'rab turgan muhitning o'zaro aloqasi sharoitida ro'y beradi. O'rab turgan muhitning o'lchamlari o'rganilayotgan tizimning o'lchamlari bilan bog'liqligi bilan tavsiflanadi va ko'pgina masalalar doimiy deb hisoblanishi mumkin. Bunday muhitga misol qilib atmosfera, dengiz suvi, kosmik makonni olish mumkin.

O'rganilayotgan tizimda materiya harakatining umumiy o'lchami sifatidagi energiya tushunchasi texnik vazifalarni hal qilishda etarlicha emas. Energiyaning texnik qiymati nafaqat uning shaxsiy o'lcham va shakllaridan kelib chiqadi, balki atrofimizni o'rab turgan muhitning o'lchamlari bilan ham bog'liqdir. SHunday qilib, har qanday energiya ham va har qanday sharoitda amaliy foydalanish uchun butunlay yaroqli bo'lavermaydi.

Ushbu nuqtai nazardan, texnik tizim ishini ta'minlovchi barcha energetik o'zgarishlarda energiya ikki ko'rinishda qo'llanilishi mumkin:

- atrof-muhit o'lchamlaridan farqli o'laroq energiyaning har qanday boshqa turiga to'liq o'zgara oladigan energiya – energiyaning «tartibli» shaklidir. Bu, masalan, mexanik, elektr yoki kimyoviy energiyadir;

